

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

 <https://timeedu.uz/>

 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislar to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 752 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘rtni ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМII, 2025. – 752 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev

i.f.n., professor I.S. Xotamov

i.f.d., professor Sh.I. Alibekov

i.f.d., professor V.P. Kuznetsov

i.f.f.d., dotsent N. Nosirova

i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov

assis. G. Axmedova

assis. A. Qudratxo‘jayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov

i.f.d., professor A.A. Yadgarov

KIRISH SO‘ZI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI XALQARO ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLAR!

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti hamda O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashi tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qutlashdan mamnunmiz!

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz “ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazmoqdamiz. Bugungi anjumanning asosiy maqsadi mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chiqur tahlil qilgan holda ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu anjuman mavzusining naqadar dolzarbligini anglatadi. Yurtboshimiz tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum ma’noda anjumanning ham o‘z hissasi bo‘ladi deb umid qilamiz.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Ilmiy samaradorlik – anjumandan kutilayotgan ilmiy-amaliy natija mamlakatimiz hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, biznes strategiyalarini takomillashtirish, shu bilan birga hududlar darajasida barqaror rivojlanishni amalga oshirish darajasini tahlil qilish, “atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv” (ESG) tamoyillariga mos holda faoliyat ko‘rsatishlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganish asosida olingan natijalarni umumlashtirib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy samaradorlik – muhokama qilinadigan masalalarning har birida ijtimoiy samara alohida o‘rin egallaydi. Chunki ESG-tamoyillarining asosiy xususiyati ham ijtimoiy sohaga yuqori darajada e’tibor qaratilishidadir. Shu jihatdan ijtimoiy samarani iqtisodiy jihatdan baholash, bu yo‘nalishda mavjud amaliyotlarni ilmiy tahlil qilishning konseptual yondashuvlarini ishlab chiqishga, hududlarda va biznes sohasida izchil islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiiy resurslar tejamkorligiga erishish asosida kelajak avlod uchun zahiralarini saqlab qolish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik - iqtisodiy faoliyatning faol ishtirokchilaridan biri ishlab chiqarish korxonalaridir, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli darajada uglerod izi qoldiriladi. Shaffof va ekologik toza ma’lumotlarni taqdim etish atrof-

muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish uchun zarurdir. Iqtisodiy samaradorlik jihatidan mavzu doirasida muhokama qilinadigan har bir masala katta ahamiyatga ega. Birinchidan, sohada qonunchilik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy yetishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; uchinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishi uchun mavjud salohiyatini baholash va shu asosda sohalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining vujudga kelishi, to'rtinchidan, korxona va tarmoqlarni rivojlantirishda "yashil" investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga keng yo'l ochiladi.

Albatta bunday o'zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo'shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o'ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o'rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o'qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo'lga qo'yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o'quv jarayonlarida, ta'lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o'z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazishda hamkorlik qilayotgan O'zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashiga, anjumanda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, BMT ning UNDP loyihasi vakillariga, Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti, Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Shimoliy-Kavkaz instituti (filiali), Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Rostov instituti (filiali), Kazpotrebsoyuz Karaganda universiteti, Kyungdong Universiteti (Koreya Respublikasi), tashkilot va korxonalarining mutaxassislari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Bugun sizlarning e'tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Biz bu jarayonda, o'z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo'ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo'lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori

X. Axmedov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.	23
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	
Алибеков Ш.И.	33
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А.	37
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	
Asamxodjayeva S.Sh.	48
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	56
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	
Киясов Б.Н.	60
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ	
Ўқбар Айдын	66
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Rashidov J.X.	72
“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”	
Alimov O.S.	82
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TANHILI	
Nazirova S.X.	89
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
Ахмедова Г.А.	99
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С.	107
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ	
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л.	113
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	
Набоков В.И., Некрасов К.В.	121
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	
Рискулов Р.Б.	125
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	
Sa’dulloyev H.I.	134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI VA “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI	
Sharipova Sh.B.	140
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
Sharipov I.B.	147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	
Ашуров А.Ф.	155
II SHO’BA. “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	164
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO‘LLARI	
Yuldashev I.B.	164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А.	168
SUN’IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO‘LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	
Norinov M.U., Zikrayev A.A.	177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN’IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO‘NALISHLARI	
Ergashev O.M.	186
ИКЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	
Вахобов А.Р.	195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.	
Йўлдошев Н.Қ.	202
SUN’IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J.	209
O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR	
Isayev K.A., Qurbanov A.G’.	215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Худайбердиев Ў.Э.	221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	
Kambarova Sh.M.	228
BARQAROR INVESTITSIYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	
Maxmasobirova N.U.	235
“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOYILLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MECHANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”	
Rusatamov Z.X.	241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE	
Sadikova M.A.	249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI	
Daminova O.M.	254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д.	262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	
Yakubova U.A.	278

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Qo‘chqorova M.U.	284
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI	
Qurbanov A.G‘.	291
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	
Murtazaev O.O.	298
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI	
Ismatulloeva M.F.	304
TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI	
Karimova Sh.U.	311
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ	
Адиллов Ш.Ш.	315
III SHO‘BA. ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI.....	325
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR	
Xotamov I.S., Qudratxo‘jayev A.K.	325
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	
Мырзалиева Г.А., Байкенжеева Д.Б.	334
QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI	
Asamxodjayeva Sh.Sh., Qodirov S.Q.	341
ESG TAMOIYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI	
Zaynutdinov I.S.	348
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA‘SIRI	
Yusupov U.M.	353
AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI	
Mardonov Sh.	362
O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA‘SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN‘IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI	
Usmonova Diyora Mahmud qizi	367
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI.....	379
Matchanova Ma‘rifat Ikramovna.....	379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	384
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	
Qobilov R.Sh.	388
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ	
Аділ Ф.С.	392
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ	
Жолдасова А.Б.	397
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ	
Кемпірәлі Е.Қ.	404
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ: ШАГИ К ИХ АВТОМАТИЗАЦИИ	
Пернебаев Е.Б.	409
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ	

Рахатова Ж.Н.	414
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO'NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Musulmonova Sh., Hikmatov M.	422
SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI	
Toxirov J.M.	426
GREEN CAR: QISHLOQ XO'JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT	
Qurbonov Sh.B.	434
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI	
Baxromov A.B.	437
XALQARO AUDIT STANDARTLARIGA MUVOFIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI YTKAZISH MASALALARI	
Ahmadjonov A.K.	443
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ: ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАР, ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Ashurov Z.A.	448
IV SHO'BA. KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	459
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Mamasoatov D.R.	459
РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА	
Abduraimova N.P.	464
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI	
Suyunov Y.B.	479
АРАБСКАЯ РЕСПУБЛИКА ЕГИПЕТ НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ	
Ziyadullaeva L.C.	487
THE IMPACT OF THE CHINA-KYRGYZSTAN-UZBEKISTAN RAILWAY ON UZBEKISTAN'S ECONOMIC DEVELOPMENT: MECHANISMS, EFFECTS, AND POLICY RESPONSES	
Ye Maoqing.	492
XORIJIY INNAVATSION INVESTITSIYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI	
Tulyaganov E.J., Ubaydullayeva G.E.	502
QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Qulliyev O.A.	507
BANKLARNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI	
Alimjanova D.S.	516
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ	
Raxymjanova A.A.	519
MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI	
Abdvaliyev Sh.X.	524
SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI	
Toshtemirov S.G'.	534
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Abdulfattoxova H.	539
AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR	
G'ulomov X.A.	545

APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	
Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T.	548
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.	
Фарходова Ш.Ш.	554
СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК	
Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б.	557
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	
Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д.	565
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	
Vahangurov O.O.	571
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI	
Lugmanov B.M.	577
KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH	
Arziyev S.	585
V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI	590
SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA	
Sobirov A.A.	590
АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ	
Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж.	597
ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
Ким Л.Н., Елтаев Н.К.	606
КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ	
Ремизова И.В.	614
TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR HORIJ TAJRIBALARI	
Shodiyev Sh.S.	620
ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ	
Усманова Ю.	623
YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI	
Primov S.F.	632
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ	
Хувайдуллаева И.Х.	638
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
Primov S.F.	642
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ	
Хусанбоев А.Ғ.	647
ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ	
Сайдуллаев Ш.	653
РАНВАР КАДРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	
Olimov S.A.	660
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHİK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI	
Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A.	667
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ	

Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O.	672
HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	
Toshboyev M.M.	680
QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI	
Yuldasheva D.K.	689
O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI	
Mamatov M.N.	699
RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI	
Matchanov T.M., Matchanova M.I.	703
AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI	
Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R.	709
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI	
Tursunqulov Sh.R.	715
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI	
Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M.	722
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH	
Hasanov H.X.	727
SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.	
Arziev Sh.R.	735
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI	
Axmedova D.B.	741

GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Murtazaev Orif Odilovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

“MBA – Global menejment” mutaxassisligi tinglovchisi

E-mail: orif.murtazayev@imv.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqola zamonaviy global biznes muhitida innovatsiyalarning o'rni, ahamiyati va xususiyatlarini har tomonlama o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda innovatsiyalarning asosiy turlari, ularning evolyutsiyasi, global muvaffaqiyatga ta'sir etuvchi omillar va kelajakdagi tendensiyalar chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy global raqobat sharoitida innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki kompaniyalarning yashab qolishi uchun ham strategik ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati uni qo'llab-quvvatlovchi tashkiliy madaniyat, qonunchilik bazasi va resurslar bilan chambarchas bog'liq. Maqolada turli sanoat tarmoqlari va geografik mintaqalardan olingan amaliy misollar orqali global innovatsiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: global innovatsiyalar, biznes strategiyasi, raqobatbardoshlik, texnologik progress, innovatsion madaniyat, barqaror innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, innovatsion ekotizim.

Abstract. This scientific article is devoted to a comprehensive study of the role, importance and characteristics of innovations in the modern global business environment. The study provides an in-depth analysis of the main types of innovations, their evolution, factors influencing global success and future trends. The results of the study show that in the conditions of modern global competition, innovations are of strategic importance not only for economic growth, but also for the survival of companies. The success of innovative activity is closely related to the organizational culture, legislative framework and resources supporting it. The article reveals the specific features of global innovations through practical examples from various industries and geographical regions.

Key words: global innovations, business strategy, competitiveness, technological progress, innovative culture, sustainable innovations, digital transformation, innovative ecosystem.

Аннотация. Данная научная статья посвящена комплексному исследованию роли, значения и особенностей инноваций в современной глобальной бизнес-среде. В исследовании представлен глубокий анализ основных типов инноваций, их эволюции, факторов, влияющих на глобальный успех, и будущих тенденций. Результаты исследования показывают, что в условиях современной глобальной конкуренции инновации имеют стратегическое значение не только для экономического роста, но и для выживания компаний. Успех инновационной деятельности тесно связан с организационной культурой, законодательной базой и ресурсами, ее поддерживающими. В статье раскрываются особенности глобальных инноваций на практических примерах из различных отраслей и географических регионов.

Ключевые слова: глобальные инновации, бизнес-стратегия, конкурентоспособность, технологический прогресс, инновационная культура, устойчивые инновации, цифровая трансформация, инновационная экосистема.

Kirish

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sish va rivojlanishning asosiy omili, balki korxonalarning global raqobatda yashab qolishi va muvaffaqiyat qozonishining hal qiluvchi shartiga aylangan. So'nggi o'n

yilliklarda dunyo iqtisodiyotining globallashuvi, texnologik taraqqiyotning jadallashuvi va pandemiya kabi global inqirozlar innovatsion faoliyatning ahamiyatini keskin oshirdi. Bugungi kunda muvaffaqiyatli biznes strategiyasini innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Global raqobat sharoitida innovatsiyalar korxonalarga nafaqat bozordagi o'rnini mustahkamlash, balki yangi bozorlar yaratish, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkoniyatini beradi. Dunyoning yetakchi kompaniyalari o'zlarining uzoq muddatli muvaffaqiyatini izchil innovatsion strategiyalar orqali ta'minlamoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalar korxonalar va davlatlar uchun raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlari samarali tashkil qilinib, iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsion faoliyatni rivojlantirish insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylanmoqda.

O'zbekiston tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan strategiyasida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyildagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-165-son farmonida iqtisodiyotning real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasini oshirish, ilmfan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish chora-tadbirlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11- sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston 2030-yilga qadar Global innovatsiya indeksida Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishi belgilangan [1, 2].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot sifat va miqdoriy usullarning kombinatsiyasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Ma'lumotlarni yig'ish ikki bosqichda olib borildi: birinchi bosqichda global biznesdagi innovatsiya tendensiyalari va turlarini o'rganish uchun ikkilamchi ma'lumotlar tahlili qilindi. Bunda ilmiy jurnallar, sanoat hisobotlari, kompaniya hujjatlari va statistik ma'lumotlar manba sifatida xizmat qildi.

Ikkinchi bosqichda innovatsion faoliyatning samaradorligi va xususiyatlarini aniqlash uchun global kompaniyalarning holatlarini o'rganish amalga oshirildi. Tahlil usullari sifatida kontent tahlil, korrelyatsion tahlil va komparativ tahlildan

foydalanildi. Innovatsiyalar tasnifi uchun o'zgartirilgan Oslo qo'llanmasining tavsiflovchi klassifikatori qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Global innovatsiya indeksining joriy yilgi reytingida O'zbekiston 133 ta davlat orasida 83-o'rinni egalladi. O'zbekiston innovatsiyalar sohasida milliy iqtisodiy rivojlanish darajasiga solishtirganda baland ko'rsatkichga erishgan mamlakatlar qatoridan joy oldi, ya'ni yalpi ichki mahsulotga nisbatan innovatsiyalarning yuqori samaradorligi qayd etildi. Indeksda mamlakatlar 4 ta daromad guruhiga bo'lingan (yuqori daromad, yuqori-o'rta daromad, quyi-o'rta daromad va past daromad), O'zbekiston o'z guruhida (quyi-o'rta daromad) 38 ta davlat ichida 10-o'rinni egalladi. O'zbekiston mintaqalar bo'yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida 10 ta Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari orasida 4-o'rinni egalladi.

Reytingning 2024-yilgi hisobotida O'zbekiston Innovatsiyalarni joriy etish uchun mavjud resurslar va sharoitlar (*innovation input*) subindeksida o'tgan yilga nisbatan 1 pog'onaga o'sib 71-o'rinni egalladi va Innovatsiyalarni joriy etishda erishilgan amaliy natijalar (*innovation output*) subindeksida 91-o'rinni egalladi.

O'zbekiston shuningdek reytingda Infratuzilma (+3), Biznesni rivojlantirish (+7) yo'nalishlarida o'z o'rnini o'tgan yilga nisbatan yaxshiladi.

Indeks 78 ta tarkibiy indikatoridan tashkil topgan bo'lib, joriy yilda ulardan 40 tasi o'tgan yilga nisbatan yaxshilangan, 13 tasi o'zgarmagan, 23 tasi pasaygan va 2 tasi ma'lumot mavjud emasligi uchun o'rni aniqlanmagan. O'zbekiston Tadbirkorlik siyosati va madaniyati (4-o'rin), Yalpi jamg'arilish (7-o'rin), Mehnat unumdorligining o'sishi (7-o'rin), Ilm-fan va muhandislik sohasida bitiruvchilar (12-o'rin), Kelib chiqishi bo'yicha foydali modellar (14-o'rin), Startap va skaylplarni moliyalashtirish (19-o'rin), Biznes yuritishni qo'llab-quvvatlash siyosatining barqarorligi (20-o'rin) indikatorlari bo'yicha yuqori natijalarga erishdi.

Mazkur hisobotda tarkibiy indikatorlar kesimida avvalgi yillarga nisbatan eng yaxshi natijalar qayd etilib indeksda mamlakatimiz ko'rsatkichlarini yaxshilashda asosiy to'siqlardan biri bo'lib kelayotgan ma'lumoti qamrab olinmagan indikatorlar soni keskin kamayishiga erishildi. Joriy yilda tarkibiy indikatorlarning qamrov darajasi 97.4 foizga yetkazildi (2015-yil 62.5 foiz, 2022-yil 81.4 foiz va 2023-yil 87.5 foiz).

Jumladan, mamlakatimiz tarixida ilk bor xalqaro mustaqil institut Global tadbirkorlik tadqiqot assotsiatsiyasi tomonidan O'zbekistonda tadbirkorlik siyosati va madaniyati holati 40 dan ortiq mustaqil ekspertlar ishtirokida o'tkazilgan Global tadbirkorlik monitori so'rovnomasi orqali aniqlandi va dunyodagi 133 ta davlatlar orasida yuqori 4-o'ringa baholandi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda mamlakat rahbariyati tomonidan O'zbekistonni 2030-yilga qadar reytingda dunyoning yuqori 50 ta mamlakatlar

qatoriga kirishi bo'yicha belgilangan maqsadga erishish uchun mustahkam poydevor yaratildi [2].

Zamonaviy global iqtisodiyotda innovatsiyalarning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin:


1. Raqobatning kuchayishi: globallashtirish va raqamlashtirish raqobatni keskin darajada oshirdi, bunda innovatsiyalar kompaniyalarga farqlanish imkoniyatini beradi.

2. Texnologik taraqqiyotning jadalligi: AI, IoT, blokcheyn kabi texnologiyalarning tez rivojlanishi innovatsion imkoniyatlarni keskin kengaytirmoqda.

3. Barqarorlik talablari: iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muammolari barqaror innovatsiyalarga bo'lgan ehtiyojni oshirmoqda.

4. Iste'molchi xatti-harakatlarining o'zgarishi: yangi avlod iste'molchilari yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra global biznesda innovatsiyalarning quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatishimiz lozim bo'ladi:



1-rasm. Global biznes innovatsiyalarining asosiy turlari¹³⁸

1. Mahsulot innovatsiyalari - yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratish yoki mavjud mahsulotlarni sezilarli darajada takomillashtirish. Bunga misol qilib, Apple iPhone, Tesla elektromobillari va Netflix striming xizmatlarini keltirish mumkin.

2. Jarayon innovatsiyalari - ishlab chiqarish, yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish usullarini yaxshilash. Amazonning logistika tizimi, Toyota ishlab chiqarish tizimi va Dell to'g'ridan-to'g'ri sotish modeli buning yaqqol misollaridir.

3. Biznes modeli innovatsiyalari - kompaniyaning qimmat yaratish, yetkazib berish va undan foyda olish usullarini o'zgartirish. Airbnb, Uber va Spotify kabi

¹³⁸ Muallif ishlanmasi.

kompaniyalar o'zlarining innovatsion biznes modellari bilan butun sanoat shtasini transformatsiya qildi.

4. **Tashkiliy innovatsiyalar** - kompaniya tuzilishi, boshqaruv usullari va korporativ madaniyatni qayta shakllantirish. Googlening 20 % qoidasi (xodimlarning ish vaqtini 20 foizini o'z loyihalariga bag'ishlashlari) va Haierning platforma tashkiloti buning misollaridir.

Tadqiqot jarayonida global muvaffaqiyatga erishgan innovatsiyalarning quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlandi:

1. Qo'shimcha qiymat yaratish - muvaffaqiyatli innovatsiyalar mijozlar, hamkorlar yoki jamiyat uchun sezilarli qo'shimcha qiymat yaratadi. Bu iqtisodiy, funktsional, emotsional yoki ijtimoiy qiymat shaklida bo'lishi mumkin.

2. Bozor ehtiyojlariga moslik - innovatsiyalar haqiqiy bozor ehtiyojlariga javob beradi yoki yangi ehtiyojlarni shakllantiradi. Global darajada bu turli mintaqaviy bozorlarning o'ziga xos talablarini hisobga olishni talab qiladi.

3. Texnologik integratsiya - zamonaviy innovatsiyalar ko'pincha bir nechta texnologiyalarning sinergik integratsiyasiga asoslanadi. Xususan, AI, IoT, blokcheyn va katta ma'lumotlar bazasini tahlil qilish kabi texnologiyalar innovatsion yechimlarning asosiy tarkibiy qismlaridir.

4. Moslashuvchanlik va masshtablanuvchanlik - Global innovatsiyalar turli bozor sharoitlarida moslashish va tez masshtablanuvchanlik qobiliyatiga ega. Bu xususiyat innovatsiyalarning global tarqalishini ta'minlaydi.

5. Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat – so'nggi yillarda barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat muvaffaqiyatli innovatsiyalarning muhim xususiyatiga aylandi. Atrof-muhitga zararsiz, energiya samarador va ijtimoiy adolatni hisobga olgan innovatsiyalar tobora ko'proq qadrlanmoqda [3,4,5].

Tadqiqot natijalari global biznesda innovatsiyalarning tobora murakkablashayotgan tabiatini va ularning ko'p qirrali xususiyatlarini ochib berdi. Innovatsiyalarning an'anaviy tasnifi (mahsulot va jarayon innovatsiyalari) endi zamonaviy biznes realligini to'liq aks ettirmaydi, chunki biznes modeli va tashkiliy innovatsiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Global bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun innovatsiyalar turli mintaqaviy va madaniy kontekstlarda moslashuvchan bo'lishi kerak. Buning yorqin misoli sifatida "McDonald's" ni keltirish mumkin, u mahsulot assortimentini mahalliy ta'mlarga moslashtirish orqali global muvaffaqiyatga erishdi. Xuddi shunday, "Samsung" mahsulotlarini turli bozorlarning narx va sifat talablariga moslashtirish orqali global raqobatbardoshligini saqlab qoldi [6].

Texnologik integratsiyaning ahamiyati pandemiya davrida yanada kuchaydi, chunki raqamli transformatsiya ko'plab kompaniyalar uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq, texnologik imkoniyatlar bilan inson omili o'rtasidagi muvozanatni

saqlash muhimligi aniqlandi. Garchi AI va avtomatlashtirish samaradorlikni oshirsada, inson ijodkorligi, strategik fikrlash va hissiy intellekt hali ham innovatsion jarayonlarning markazida qolmoqda. Barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatning o'sib borayotgan ahamiyati global biznesda innovatsiyalarning yangi yo'nalishlarini belgilamoqda. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan mahsulotlar, aylanma iqtisodiyot modellari va ijtimoiy adolatni hisobga olgan biznes amaliyotlari nafaqat etik talab, balki biznes muvaffaqiyati uchun ham muhim omilga aylandi.

Xulosa va takliflar

Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, global biznesda innovatsiyalar murakkab, ko'p qirrali va doimiy rivojlanuvchi hodisadir. Muvaffaqiyatli innovatsiyalar qo'shimcha qiymat yaratish, bozor ehtiyojlariga moslik, texnologik integratsiya, moslashuvchanlik va barqarorlik kabi asosiy xususiyatlarga ega. Global darajada innovatsiyalar turli mintaqaviy, madaniy va iqtisodiy sharoitlarda samarali ishlashi uchun moslashuvchan va masshtablanuvchan bo'lishi kerak.

Kelajakda global biznesda innovatsiyalar yanada kollaborativ, amaliy va barqaror bo'lishi kutilmoqda. Texnologiyaning rivojlanishi, ayniqsa AI, kvant hisoblash va biotexnologiyalardagi yutuqlar innovatsiyalarning tabiatini tubdan o'zgartirishi mumkin. Shu bilan birga, iqlim o'zgarishi, demografik vaziyatlar va geosiyosiy o'zgarishlar kabi global muammolar innovatsiyalarning yangi yo'nalishlarini belgilamoqda.

O'zbekiston korxonalari global biznes muhitida barqaror rivojlanishni taminlash hamda ma'lum raqobatbardoshlikka erishish uchun quyidagi tavsiyalarni berib o'tamiz:

- a) milliy korxonalar innovatsion faoliyatni turli xil bozorlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda diversifikatsiya qilishlari kerak;
- b) innovatsion madaniyatni shakllantirish va rag'batlantirish nafaqat marketing va strategik rivojlantirish bo'limlari, balki butun korxona bo'ylab amalga oshirilishi maqsadga muvofiq;
- c) texnologik imkoniyatlar bilan inson kapitalini rivojlantirish o'rtasida muvozanatni saqlash muhimdir;
- d) barqarorlik va korporativ ijtimoiy mas'uliyat korxona innovatsion strategiyasining ajralmas qismiga aylantirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyildagi "2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-165-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-6102462>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/en/docs/-6600413?ONDATE=12.09.2023%2000>

3. Chesbrough, H. (2003). Open Innovation: The New Imperative for Creating and Profiting from Technology. Harvard Business School Press.

4. Drucker, P. F. (1985). Innovation and Entrepreneurship. Harper & Row.

5. Christensen, C. M. (1997). The Innovator's Dilemma: When New Technologies Cause Great Firms to Fail. Harvard Business Review Press.

6. Tidd, J., & Bessant, J. (2018). Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wiley.

SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI

Ismatulloeva Madinabonu Fozil qizi,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi
E-mail: madinabonuismatulloyeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining barqaror rivojlanish muammolariga bag‘ishlangan. Maqsad barqaror rivojlanishning nazariy asoslarini o‘rganish, xorijiy va mahalliy tajribalarni tahlil qilish, shuningdek, sanoat korxonalarining barqarorligini ta‘minlovchi omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda barqaror rivojlanishning uch ustunli modeli (iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy) asos qilib olingan. Maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barqaror sanoatlashtirish bo‘yicha islohotlar, jumladan, “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligi rivoji yoritilgan. Raqamli transformatsiya, “yashil” texnologiyalar, innovatsiyalar va barqaror moliyaning barqaror rivojlanishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, sanoat korxonalari, “yashil” iqtisodiyot, ESG tamoyillari, ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas‘uliyat, energiya samaradorligi, innovatsiyalar.

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам устойчивого развития промышленных предприятий Республики Узбекистан. Цель - изучение теоретических основ устойчивого развития, анализ зарубежного и отечественного опыта, а также выявление факторов, обеспечивающих устойчивость промышленных предприятий. В исследовании использована трехкомпонентная модель устойчивого развития (экономическая, экологическая, социальная). В статье освещены реформы по обеспечению устойчивой индустриализации в Узбекистане, в том числе переход к "зеленой" экономике, развитие энергоэффективности. Проанализированы роль цифровой трансформации, "зеленых" технологий, инноваций и устойчивого финансирования в устойчивом развитии.

Ключевые слова: устойчивое развитие, промышленные предприятия, "зеленая" экономика, принципы ESG, экологическая устойчивость, социальная ответственность, энергоэффективность, инновации.

Abstract. This article is devoted to the problems of sustainable development of industrial enterprises of the Republic of Uzbekistan. The aim is to study the theoretical foundations of sustainable development, analyze foreign and local experiences, as well as identify factors ensuring the sustainability of industrial enterprises. The research is based on a three-pillar model of sustainable development (economic, environmental, social). The article covers the reforms on sustainable industrialization being implemented in Uzbekistan, including the transition to a

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114